XALQ DEPUTATLARI NAVBAHOR TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 31-yanvar VII-4-9-5-73-K/25 Navbahor tumani

Navbahor tumanidagi maydon va qabristonlarga nom berish va qayta nomlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 4-martdagi 48-sonli “Shaharlar, posyolkalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish tartibi to‘g‘risidagi” qarori hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 24-moddasiga asoslanib, xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Geografik ob’ektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasining 2024-yil 26-avgustdagi 1-sonli yig‘ilish bayoni hamda tuman Obodonlashtirish boshqarmasi boshlig‘i L.Jamilovning tumanidagi ayrim maydon va qabristonlarga nom berish to‘g‘risidagi taklifi inobatga olinsin.

2. Nomlariga o‘zgartirish kirtilayotgan mahalla fuqarolar yig‘inlariga O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 4-martdagi 48-sonli “Shaharlar, posyolkalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish tartibi to‘g‘risidagi” Qarori va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktyabrdagi “Geografik ob’yektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik ob’yektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari xaqida”gi 295-sonli qarori asosida Navbahor tuman Obodonlashtirish boshqarmasi boshlig‘i L.Jamilov tumandagi maydon va qabristonlarga nom berish to‘g‘risidagi takliflari 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman Tashkiliy-nazorat guruhi rahbari (B.Ergashov), tuman hokimi maslahatchisi, tuman komissiyasi kotibi (F.Raymov)ga:

uch kun mudatta O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi “Geografik ob’yektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik ob’yektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari xaqida”gi 295-sonli qarori talablari ijrosini ta’minlash maqsadida Navbahor tumani hududidagi mavjud geografik ob’yektlarni nomlash va qayta nomlash bo‘yicha tegishli tuman komissiyasi bergan takliflarini belgilangan tartibda atroflicha o‘rganish, davlat ekspertizasiga taqdim etish hamda tegishli xulosalar berish uchun

Geografik ob’yektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha Navoiy viloyat komissiyasiga taqdim etish;

- Qonunda talab etilgan muddatlarda belgilangan tartibda Geografik ob’yektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha Navoiy viloyat komissiyasi xulosalarini olish va Xalq deputatlari tuman kengashi sessiyasiga “Geografik ob’yektlarni nomlash va qayta nomlash masalalarini” muhokamaga kiritish vazifasi yuklatilsin.

4. Mazkur qaror ijrosini ta’minlash komissiya raisi o‘rinbosari, A.Tuxliyev, tuman hokimligi Tashkiliy-nazorat guruhi rahbari B.Ergashov va tuman hokimi maslahatchisi, tuman komissiyasi kotibi F.Raymov zimmalariga yuklatilsin.

5. Qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi O‘ROQOV AZAMAT SHODIYEVICH

Xalq deputatlari Navbahor tumani
Kengashining
2025-yil 31-yanvardagi
VII-4-9-5-73-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Navbahor tumanidagi nomlari o‘zgartirish belgilangan geografik ob’yektlari to‘g‘risida
RO‘YXATI

T/r	Geografik ob’yektning turi	Joylashgan o‘rni	Geografik ob’yektning amaldagi nomi	Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Izoh
1	2	3	4	5	6
1.	Qabriston	Navbahor tumani	Nomsiz	" G‘oyib ota" Qorovultepa qabristoni	Qishloq nomi, shuningdek qadamjo nomi
2.	Qabriston	Navbahor tumani	Nomsiz	" G‘oyib ota" Saroy qabristoni	Qishloq nomi, shuningdek qadamjo nomi
3.	Qabriston	Navbahor tumani	Nomsiz	"G‘oyib ota" Karvon qabristoni	Qishloq nomi, shuningdek qadamjo nomi
4.	Qabriston	Navbahor tumani	Nomsiz	"G‘oyib ota" Xashman qabristoni	Qishloq nomi, shuningdek qadamjo nomi
5.	Qabriston	Navbahor tumani	Nomsiz	"G‘oyib ota" Yangi kuch qabristoni	Qishloq nomi, shuningdek qadamjo nomi
6.	Qabriston	Navbahor tumani	Nomsiz	"G‘oyib ota" Yaltirabot qabristoni	Qishloq nomi, shuningdek qadamjo nomi
7.	Qabriston	Navbahor tumani	Nomsiz	"G‘oyib ota" Chorvoqguzar qabristoni	Qishloq nomi, shuningdek qadamjo nomi
8.	Qabriston	Navbahor tumani	Nomsiz	"G‘oyib ota" Navbaxor qabristoni	Qishloq nomi, shuningdek qadamjo nomi
9.	Qabriston	Navbahor tumani	Nomsiz	"Dul dul" Yuqori qabristoni	Mahalla boshi Qishloq nomi
10	Qabriston	Navbahor tumani	Nomsiz	"Dul dul" Quyi qabristoni	Mahalla oxiri Qishloq nomi
11	Qabriston	Navbahor tumani	Nomsiz	"Shaxid ota" Burqut	Qishloq nomi qadimiy shaxs

				qabristoni	
12	Qabriston	Navbahor tumani	Nomsiz	"Shaxid ota" Guliston qabristoni	Qishloq nomi qadimiy shaxs
13	Qabriston	Navbahor tumani	Nomsiz	" Mexchagaron" Arabxona qabristoni	Qishloq nomi
14	Qabriston	Navbahor tumani	Nomsiz	"Mushkul ota" Paxtakor qabristoni	Qishloq nomi
15	Qabriston	Navbahor tumani	Nomsiz	“Dzon ota” Qorovultepa qabristoni	Qishloq nomi
16	Qabriston	Navbahor tumani	Nomsiz	“Kavobi” Uchtut qabristoni	Qishloq nomi
17	Qabriston	Navbahor tumani	Nomsiz	“Oqqulsoy” Qiziltepa qabristoni	Qishloq nomi
18	Qabriston	Navbahor tumani	Nomsiz	Qum ota Qiziltepa qabristoni	Qishloq nomi
19	Qabriston	Navbahor tumani	Nomsiz	"Kumoch ota" Vomiton qabristoni	Qishloq nomi